



**BOSHLANG‘ICH DARAJADA KOREYS TILIDA YOZISH
KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI**

Azimova Nigora Axmad qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

komilnomozov643@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisdá koreys tilini o‘rganish jarayonida yozish ko‘nikmasining lingvodidaktik va psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Boshlang‘ich bosqichda yozish faoliyatini shakllantirish, uning kognitiv va affektiv omillari, shuningdek, samarali o‘qitish metodlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: 쓰기, yozish ko‘nikmasi, Test maker, Write Korean

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekistonda xorijiy tillarni, xususan koreys tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu esa til o‘qitish metodikasini takomillashtirishni talab etadi. Ayniqsa, yozish ko‘nikmasi til o‘rganish jarayonida muhim komponent bo‘lib, u o‘quvchining fikrni mustaqil ifodalash, grammatik va leksik bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shunga qaramay, yozish ko‘nikmasi ko‘pincha ikkinchi darajali faoliyat sifatida qaralib, unga yetarlicha e‘tibor berilmaydi. Mazkur tezisdá yozish ko‘nikmasining ahamiyati va uni boshlang‘ich bosqichda samarali rivojlantirish yo‘llari yoritiladi.



Asosiy qism

Koreys tilida eng avvalo yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda quyda omillarga ahamiyat qaratmiz.

1. Yozish ko‘nikmasining lingvodidaktik mohiyati

Yozish — bu murakkab kognitiv jarayon bo‘lib, u fikrni rejalashtirish, til birliklarini tanlash va ularni yozma shaklda ifodalash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich darajada esa yozish ko‘nikmasi quyidagi elementlardan iborat:

-grafika (harflarni to‘g‘ri yozish),

-imlo,

-sodda gap tuzish,

-qisqa matn yaratish.

Koreys tilida yozish (쓰기) ko‘nikmasi ayniqsa 한글 tizimini o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Bu bosqichda o‘quvchilar bo‘g‘in tuzilishini anglash va kundalik hayotga oid sodda jummalarni yozishni o‘rganadilar. Shuningdek, yozish faoliyati o‘rganilgan grammatik va leksik materialni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi hamda bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi.

2. Yozish ko‘nikmasining psixolingvistik asoslariga ham bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatib bular:

a) Kognitiv omillar: Kognitiv omillar fikrlash va rejalashtirish, ma’lumotni qayta ishlash, yozish strategiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

b) Affektiv omillar: Tilni o‘rganuvchida yozishga bo‘lgan ishonch (self-efficacy),

yoki yozishdagi xavotir (anxiety)dir. Yozishdagi yuqori xavotir o‘quvchining faol ishtirokini kamaytiradi, aksincha, o‘ziga ishonch yozish samaradorligini oshiradi.

c) Ijtimoiy-madaniy omillar: Yozish nafaqat individual faoliyat, balki kommunikativ jarayon ham hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar (messengerlar, bloglar) yozma muloqotni kengaytirib, yozishni ijtimoiy faoliyatga aylantirmoqda.

Yozish ko‘nikmasini rivojlantirishning samarali metodlari ayniqsa boshlang‘ich darajada yozish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Kommunikativ yondashuv jihatdan nazar soladigan bo‘lsak yozish mashqlari real hayotiy vaziyatlarga asoslanishi lozim: Bunga misol tariqasida *kundalik dialoglar yozish, qisqa xabarlar tuzish, shaxsiy fikrni ifodalash.*

2. Nazorat qilinadigan yozish mashqlari (boshlang‘ich bosqichda): *ko‘chirib yozish, gaplarni to‘ldirish, namunaga asoslangan yozish.*

Bu usullar o‘quvchining xatolarini kamaytiradi. Jumla va iboralarni to‘g‘ri ishlatishga undaydi.

3. Raqamli vositalardan foydalanish: interaktiv platformalar, mobil ilovalar, onlayn yozish mashqlari. Bular ichida eng samarali deb hisoblanadiganlari: **Test maker** (bu ilova nafaqat boshlang‘ich balki barcha darajadagi turli til o‘rganuvchilari uchun mos, qayta qayta so‘zlarni yozish orqali xotirada saqlash osonlashadi. **Write Korean** ilovasi aynan o darajada, tilga endi kirib kelayotgan o‘rganuvchilar uchun, koreys tilida harflarni to‘g‘ri

yozishga undaydigan ilovadir. Bu usullar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiradi.

Xulosa

Yozish ko‘nikmasi koreys tilini o‘rganishda muhim o‘rin egallaydi va u o‘quvchining umumiy til kompetensiyasini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich bosqichda yozish ko‘nikmasini shakllantirishda lingvodidaktik, psixolingvistik va metodik omillarni kompleks tarzda hisobga olish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki: yozish strategiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi, affektiv omillarni boshqarish muhim, zamonaviy va interaktiv metodlar yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ёўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси.—Тошкент:Фан, 2008. —160 б.
2. Harklau, L. The role of writing in classroom second language acquisition. Journal of Second Language Writing, 11, 2002. – 329-350 p.
3. Olson, D. R. The world on paper: The conceptual and cognitive implications of writing and reading. New York: Cambridge University Press. 1994.
4. 정명숙. 「주제토론(한국어 교실에서의 쓰기 교육 방안)」 □ 통합 수업에서의 쓰기 교육 양상과 제언 □, 국제한국어교육학회 춘계학술 발표논문집, 국제한국어교육학회, 2012. – 43-49.p